



INTERNATIONAL JOURNAL

INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

ISSN 3030-3443

Volume 1. Issue 12. April, 2024



OpenAIRE

EXPLORE



JENNY STANFORD
PUBLISHING

ISSN 3030 – 3443

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF SCIENCE AND TECHNOLOGY**

International Scientific electronic journal

O'QUVCHILARNI KIMYO FANIGA QIZIQISHINI OSHIRISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING O'RNI VA AHAMIYATI.

Abdurahmonov Barat Mamatmurodovich

k.f.n. dots.-Jizzax davlat pedagogika universiteti

Xudayarova Nargiza Olimjon qizi

1- bosqich magistri -Jizzax davlat pedagogika universiteti

To'ychiyeva Dinora Ilhom qizi

1- bosqich magistri-Jizzax davlat pedagogika unversiteti

nargizaxudayaroval@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur maqolada AQShlik Jon Erik Tongrenning bugungi axborotlar haqidagi fikrlari, bolada axboratlarning to'g'risi va keraklisidan foydalanish zarur ekanligi. Axborotlar bu bilim bo'lib, bunda maktabning o'rnini beqiyos ekanligi. Bolada nazariy bilimlar bilan birgalikda amaliy mashg'ulotlar ham, katta ahamiyat kasb etishi kimyo fani misolida keltirib o'tilgan. Darsliklardagi mavzular ketma- ketliklari, rasmlarning internet tarmoqlari kabi har- xil ekanligi izoh sifatida keltirib o'tilgan. Amaliy mashg'ulotlarda turli -xildagi kompyuter dasturlaridan foydalanish masalasi haqida izohlar berilgan.

Kalit so'zlar: Bola, axborot, internet, bilim, o'quvchilar, kimyo, o'qituvchi, amaliy mashg'ulotlar, alanga, kislorod, qiziqish, gugurtsiz olov, tajriba, kompyuter dasturlari, simmulatsion.



AQSH dagi Antlanta Kasalliklarini oldini olish va nazorat etish markazi boshlig'i Jon Erik Tongren boschiligidagi ilmiy guruhning ma'lum qilishicha, bolalar uchun ishlanayotgan filimlarda qahramonlar avvalgilarga qaraganda ko'proq xavfsizlik qoidalarini buzayaptilar. Bola ko'pincha filimda nimani ko'rsa shunga taqlid qiladi. Agarda bola tassavuridagi „qahramon“ texnika xavfsizligini buzsa, unga o'qituvchining „Bunday harakat to'g'ri emas“, degan uqtirishi u qadar ta'sir etmasligi ma'lum bo'ldi,- deydi Jon Erik Tongren. Shubhasiz, internet bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi, biroq tarmoqqa joylashtiriladigan katta hajimdagi axborotning barchasini ham ishonchli va foydali deb bo'lmaydi.[1] Maktabda bola turli fanlardan bilim oladi. O'tmishda ham, bugungi kun uchun ham,

kelajak uchun ham zarur bo'lgan fanlardan biri bu kimyo fanidir. O'quvchilarga kimyo fanini o'qitilishi 7- sinfdan boshlanadi. O'quvchida fanga qiziqishi ham, unda dastlabki kimyoviy bilimlar hosil bo'ladigan bosqich ham hisoblanadi. Bu esa o'qituvchidan yuksak malaka va ma'sulyat yuklaydi. 7- sinf darsligi juda rang-barang xuddi internet tarmog'i kabi, unda turli xildagi rasmlar, topshiriqlar, amaliy mashg'ulotlar jamlangan. Mavzular va amaliy mashg'ulotlar ham juda chiroyli ketma -ketlikda bog'langan. Misol uchun, 5-Mavzu Kislorodning kimyoviy xossalari, 6-Mavzu: Yonish, 7- Mavzu: Amaliy mashg'ulot. Bu mashg'ulot o'tilgan barcha mavzularni mustahkamlaydi. Bunda- Alanga tuzilishi va moddalarning kislorodda yonishi. Alanga qanday hosil bo'lishi, alangada sodir bo'ladigan kimyoviy jarayonlar haqida ma'lumot berilgan bo'lib, davomida turli xildagi tajribalar berilgan. Amaliy mashg'ulotning bunday berilishi bolada alanga qanday tuzilganligi haqida tushuncha hosil qilib, alangani yonishiga yordam beruvchi modda kislorod ekanligini ham bilib oladilar. Tajribalar asosida esa olgan bilimlarini mustahkamlaydilar va fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradilar. „6- Mavzu: Yonish mavzusi ham amaliy mashg'ulot orqali mustahkamlanadi. Yonishning zamonaviy nazariyasini fransuz kimyogari A.Lavuazye ilgari surgan. U yonish havo aniqrog'i, uning tarkibiy qisimlaridan biri – kislorod ishtirokida sodir bo'lishini aniqladi. Bundan tashqari, Lavuazye havo oddiy modda emas, balki gazlar aralashmasi ekanini isbotladi va uning tarkibini aniqladi. Havoning bir qismi bo'lgan barcha gazlardan faqat kislorod yonadi. [2] Havo ishtirokida boradigan reaksiyalarda ham kislorod ishtirok etsa, ba'zan reaksiya jarayonida hosil bo'ladigan atomar kislorod ham yonishga sababchi bo'ladi. Keling buni quyidagi ya'ni „Ggurtsiz olov yoqish“ deb nomlangan tajriba orqali ko'rib chiqishimiz mumkin, bu tajribaning nomi ham bolada beixtiyor fanga qiziqishni uyg'otishi mumkun. Jizzax viloyati Zomin tumanida joylashgan 1- maktabning 7 –sinf o'quvchilariga amaliy mashg'ulotda gugurtsiz ham olov hosil qilish mumkunligini aytganimda ularda ajablanish, qiziqish borligi sezilib turardi. Bu tajribani dars jarayonida emas balki, to'garak mashg'ulotlar davomida ko'rganlarida esa haqiqatdan ham hech qanda

gugurtsiz ham, olov hosil qilish mumkun ekanliklarini quyidagi amaliy mashg'ulot orqali tanishdilar.

Gugurtsiz olov yoqish uchun kichik maydalangan yog'och tarashalar tayyorlandi. Uning o'rtasiga shisha tigelchaga kaliy permanganatning kukuni bilan konsentrlangan sulfat kislotaning aralashmasi joylashtiriladi. So'ngra uning ustiga etil spirit tomiziladi, bir zumda tarasha yonib alanga hosil bo'ladi. Bu tajribani quyidagicha namoyish qilish mumkin. Shisha tayoqchani bir uchi konsentrlangan H_2SO_4 ga botirilib, uning ustiga kukun holiga keltirilgan $KMnO_4$ kukuni sepiladi. Tayoqchani spirtga botirib olingan paxtaga tekkizib ishqalansa, paxta tezda yonib ketadi. Bunga sabab kaliy permanganate sulfat kislota bilan reaksiyaga kirishib atomar kislorod hosil qiladi. Atomar kislorod juda kuchli oksilovchi bo'lganligi sababli spirtni oksidlab yondirib yuboradi.

Reaksiya tenglamasi:



O'tkazilgan tajribadan gugurtsiz olov hosil qilishning siri kaliy permanganate bilan sulfat kislota orasidagi reaksiya natijasida hosil bo'lgan atomar kislorodning oson alanganuvchi moddalar bilan reaksiyaga kirishishida ekan.[3]. Shu kabi tajribalarni turli-xil kimyoviy pedagogik dasturiy vositalar asosida simmulatsion tajribalarni yaratish orqali, kichik guruhlarda mo'ljallangan texnologiyalar asosida, shuningdek "Crocodile Chemistry, Avagadro 5.0, Chem 3D, Chemical Professional 16.0, Gaussian, Chemical Equation, Chem.Ph et" kabi kompyuter dasturlaridan foydalanib o'qitishning samarali usullarini qo'llash tavsiya etiladi. Ko'rgazmalarning rang-barangligi o'quvchida nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'zlashtirishi uchun muhim omillardan biridir. Bugungi global zamonda an'anaviy darslar orqali bolani qiziqtirish amri maholdir. Yuqoridagi kopyuter dasturlari bu endi fani o'rganayotgan 7- sinf o'quvchisi uchun bir mo'jizadir.

Xulosa

Hozirgi zamonda bola ongini turli g'oyalar bilan qamrab olish oson, chunki internet tarmoqlari bunga keng yo'l ochib beradi. Bola dunoyisiga kirib uni qaysi

axborot to'g'ri, qaysi notog'ri ekanligini tushuntirish bugungi zamonning eng dolzarb muommolaridan biri hisoblanadi. Sababi internet tarmoqlaridagi rang- baranglik, jozibador musiqalar bolani o'ziga jalb qiladi. O'qtuvchi axboratlarni to'g'risini tanlab olish kerakli ekanligini tushuntirib berayotganda ham turli- xildagi metodlar, musiqalar, vidioro'liklar, amaliy mashg'ulotlar orqali tushuntirishi lozim. Bola nazariy olgan bilimlarini amalda ko'rsa, yaxshi esida qoladi va shunga amal qiladi. Bolaga bilim bilan birgalikda tarbiyani ham chambarchas holda olib borish lozim. Dastlabki bilimlar oiladan beriladi. Kasbga ham qiziqish oiladan boshlanadi. Kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishi uchun unga oid bilimlarni esa maktabgacha ta'lim, maktab, oliy o'quv yurtlarida oladi. Asosiy bilimning asosini maktab belgilaydi. Kimyo mo'jizalar olamiga bir yo'ldir. Uning sir – sinoatini esa egallangan bilimlar orqali yechish mumkun.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. „Ахборот асрида таълим- тарбия” тузувчилар : Б.Х.Данияров, А.Э.Рахимов, Ф.Х.Жабборов. Тошкент „Академнashr” 2012
2. „Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7- sinfi uchun darslik”, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi nashrga tavsiya etgan. Yngi nashr Toshkent 2022
3. „Kimyo olamiga sayohat” O'qituvchi va o'quvchilar uchun qo'llanma, Toshkent „O'zbekiston”

International Journal of Science and Technology

Volume 1, Issue 12, April. 2024:

1. PRAGMATIK MA'NO TURLARINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR
<i>Mirzayeva Nigoraxon Anvarovna, Ismailov Turg'un Salaxiddinovich</i>
4-10-bet
2. SIMSIZ SENSOR TARMOQLARIDAN FOYDALANISH ORQALI TEXNOGEN OB'YEKTLARNI MONITORING QILISH
<i>Anarova Shaxzoda Amanbayevna, Choriyev Anvar Alisher o'g'li</i>
11-16-bet
3. “ЯНГИ ТУГИЛГАН БОЛАЛАРДА УЧРАЙДИГАН МУКОВИСЦИДОЗНИНГ ИЧАК ШАКЛИНИ ИММУНОГИСТОКИМЁВИЙ ХОС ЖИХАТЛАРИ”.
<i>Рахмонова Шахноз Каххоровна</i>
17-21-bet
4. OQOVA SUV NAMUNALARIGA SUV YUZIDA QALQIB O'SUVCHI YUKSAK SUV O'SIMLIKLARI EKIB BIOLOGIK TOZALASH VA TAHLIL QILISH
<i>R.B. Norboboeva, D.Z. Xayitboyeva</i>
22-29-bet
5. ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБНАРУЖЕНИЯ ПОЖАРОВ: РОЛЬ ФУНКЦИИ ДЕТЕКТОРА ДЫМА В ВИДЕОАНАЛИТИКЕ
<i>Бадалова М.Ш. Яхёев М</i>
30-38-bet
6. LIPIDLARNING PEREKISLI OKSIDLANISH JARAYONI VA UNGA GLITSIRRET KISLOTASI HOSILALARINING TA'SIRI
<i>Turopova N.Z, Cho'liyev I.N</i>
39-47-bet
7. MAHSULOTLARGA SOF SOLIQLAR HAJMINIGA ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSİYALARINING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH
<i>Hamrayev G'iyos Raxmonqulovich</i>
48-53-bet
8. OLAMNING LISONIY MANZARASI TUSHUNCHASI VA TADQIQI
<i>Xabibullayeva Adolat</i>
54-62-bet
9 DEVELOPING WRITING SKILL THROUGH GRAPHIC ORGANIZERS
<i>Ortiqova Tursunoy Jumanazar qizi, Norqobilov Sobir Hamza o'g'li</i>
63-68-bet
10. LINGVOKULTUROLOGIYA TADQIQINING ASOSIY YO'NALISHLARI
<i>Xabibullayeva Adolat</i>
69-74-bet
11. INGLIZ TILI MORFOLOGIYASIDA SO'Z TURKUMLARINI O'RGANISH ZARURIYATI
<i>Mashrabjonov Oybek</i>
75-80-bet

12. O'QUVCHILARNI KIMYO FANIGA QIZIQISHINI OSHIRISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Abdurahmonov Barat Mamatmurodovich, Xudayarova Nargiza Olimjon qizi, To'ychiyeva Dinora Ilhom qizi.

80-84-bet

LINGUOCULTURAL STUDY OF THE HYPERNYM "FOOD" AND ITS HYPONYMS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Baratova Khulkar Gofur kizi. Ismailov Turgun Salakhiddinovich.

85-91-bet

14. IJTIMOIIY TARMOQLAR TA'SIRIDA VUJUDGA KELGAN FUQAROLIK JURNALISTIKASI

Dilobar Arabova

92-96-bet

